Qabul qilindi: 28.03.2025 Chop etildi: 30.04.2025 UDK:821.109.11

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID TERMINLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Tairova Maxfuza Abdusattorovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

ЭТИМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ СТРАНОВЕДЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Таирова Махфуза Абдусатторовна, преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF COUNTRY STUDIES TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Tairova Makhfuza Abdusattorovna, Lecturer at Termiz University of Economics and Service

https://orcid.org/0006-0002-9476-1500
e-mail: abdusattorova@mail.ru

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi mamlakatshunoslik sohasiga oid asosiy terminlarning kelib chiqishi, shakllanishi va semantik rivojlanishi etimologik jihatdan tahlil qilinadi. Terminlarning lingvistik xususiyatlari, ularning tarjima jarayonidagi o‘ziga xosliklari va ikki tildagi muqobilligi o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:** tahlil, etimologiya, leksik, semantik, termin, soha terminologiyasi, mamlakatshunoslik, lingvistik.*

***Abstract:** This article presents an etymological analysis of key terms used in the field of country studies in English and Uzbek. It explores the origins, development, and semantic evolution of these terms, examining their linguistic characteristics and translation-specific features.*

***Keywords:** analysis, etymology, lexical, semantic, term, field terminology, country studies, linguistics.*

***Аннотация:** В данной статье проводится этимологический анализ основных терминов страноведения на английском и узбекском языках. Рассматриваются происхождение, формирование и семантическое развитие этих терминов, а также их лингвистические особенности и специфика перевода.*

***Ключевые слова:** анализ, этимология, лексический, семантический, термин, полевая терминология, страноведение, языкознание.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Milliy terminologiya o‘zbek davlatchiligi tarixiy yo‘lining ifodasidir. U demokratiya g‘oyasi va siyosiy yechimi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, o‘tmish qadriyatlarini tiklash, tizim hamda uning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan beshta asosiy bosqichni qamrab oladi:

1) islomgacha bo‘lgan o‘zbek milliy davlatchiligi;
2) o‘rta asrlardagi o‘zbek davlatchiligi;
3) mustamlaka hududiy birligi sifatida Turkiston o‘lkasining tashkil topishi;
4) sotsialistik katta etnik guruh tarkibida O‘zbekiston SSRning ajralib chiqishi;
5) suveren mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining vujudga kelishi.

Bu holatda milliy istiqlol tushunchasining tamoyil va xususiyatlariga tayanib ish ko‘rish muhim ahamiyat kasb etadi va lug‘at boyligimizning o‘ziga xosligini belgilab beradi. Til unsurlarining turli rivojlanish bosqichlarida namoyon bo‘lishi til

taraqqiyotining asosiy belgilaridan biridir. Tilning leksik, grammatik, fonetik va boshqa qatlamlari bir xil tezlikda rivojlanmaydi, bu esa til taraqqiyotining turli bosqichlarini yaqqol ko‘rsatib beruvchi xususiyatdir. Til asta-sekin rivojlanadigan va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradigan tizimdir. Ma’lumki, tilning leksik qatlami tez sur’atlarda rivojlanadi, yangilanadi va o‘zgaradi. Bunda kundalik hayot va jamiyat taraqqiyoti natijasida eskirgan tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar o‘rnini, yangi g‘oyalarni aks ettiruvchi leksik birliklar egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Mamlakatshunoslik terminlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan morfologik va leksik-semantik usullar, ularning tilshunoslikda nazariy va amaliy ahamiyati, terminologiyaning shakllanishiga hissa qo‘shadigan omillar, uning tadrijiy taraqqiyot bosqichlari, dunyo olimlarining leksikografiya rivojiga qo‘shgan hissalari nihoyatda qimmatlidir. Rus tilshunosligida A.Merkulova, L.Dmitriyeva, N.Speranskaya, Ye.Gizzatullina, A.Xismatova, G.Kurbangaliyeva, M.Xolodinalar tomonidan rus tilidagi terminlarning kelib chiqishi, etimologiyasi, nomlash birliklari hamda mamlakatshunoslik terminologiyasi bo‘yicha keng qamrovli etimologik, struktur-semantik, qiyosiy-tipologik va onomasiologik tadqiqotlar olib borilgan[1]. V.A.Nikonovning fikricha, “Mamlakatshunoslik – tilshunoslikning geografik nomlarni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan alohida sohasi; til tarixi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya sohalari bilan kesishadi; tarix, geografiya, etnografiya bilan uzviy bog‘liq”[2].

Tilshunos olimlarning asarlarida mamlakatshunoslik terminlarining etimologik tahliliga oid ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida Markaziy Osiyo xalqlarining etnonimlari, toponimlari va boshqa mamlakatshunoslik terminlarining etimologik tahlili berilgan. Ushbu asar turkiy xalqlar tarixi, tili va madaniyati bo‘yicha qimmatli manba hisoblanadi[4]. Bundan tashqari, V.V.Bartold, A.P.Xoroshix, S.P.Tolstov kabi olimlarning asarlarida O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi, madaniyati va tili, shuningdek, mamlakatshunoslikka oid boshqa masalalar bo‘yicha etimologik tahlillar mavjud. Ushbu olimlarning ishlari O‘rta Osiyo mamlakatshunosligining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Etnonimlar (xalq, urug‘, qabila nomlari bilan atalgan joy nomlari) hududlar toponimiyasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu turdagi joy nomlari orqali hududning tarixiy etnik tarkibi, aholining migratsiya yo‘llari va boshqa tarixiy ma’lumotlarni aniqlash mumkin. Tilning shakllanishi uzoq va murakkab evolyutsion jarayonni boshidan kechiradi. Har bir tilning o‘ziga xos hayot davomiyligi, paydo bo‘lish davri va rivojlanish jarayoni mavjud. Til tarixi uning hozirgi holati va kelajakdagi evolyutsiyasidan ajralmasdir. Shu sababli tilshunoslikda etimologiya – yoki so‘zlarning kelib chiqishiga e’tibor qaratadigan tadqiqot sohasi rivojlandi. Til lug‘atida terminlar etimologiyasini o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, tilning xalqlar madaniyati, turmush tarzi va qo‘shnichilik munosabatlariga nisbatan qanday taraqqiy etganligini sinchkovlik bilan o‘rganishni taqozo etadi. Ilmiy tadqiqotda o‘rganilgan har bir lug‘aviy birlikni tilning tarixiy manbalarida, ularning turkiy shevalardagi ma’nolari va variantlari, soha atoqli otlari, onomastik kelishiklar yordamida shakllangan frazeologik iboralarda uchratish mumkin. Matnda ismlarning etimologiyasi, nomlash amaliyoti, fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlari hamda ular orasida shakllangan so‘z va so‘z birliklari morfologik va sintaktik jihatdan keng o‘rganilgan[5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ingliz tilida mamlakatshunoslikka oid ko‘plab terminlar tarixiy va madaniy jarayonlarga bog‘liq holda shakllangan. Ingliz tilidagi “geography” so‘zi, masalan, yunoncha *“geographia”* so‘zidan kelib chiqqan, bu *“geo”* (yer) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan tashkil topgan. Ya’ni, *“geography”* so‘zi *“yerni tasvirlash”* yoki *“yerni tasvirlash san’ati”* ma’nosini anglatadi.

Shuningdek, ingliz tilida *“cartography”* (kartografiya) termini ham yunoncha *“kartos”* (harita) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu so‘zning etimologiyasi ham hududni yoki joyni tasvirlashni ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi ba’zi mamlakatshunoslik terminlarining etimologiyasi:

Etnografiya – yunoncha *“ethnos”* (millat, xalq) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “xalqning madaniyati, urf-odatlari, tili va kundalik hayoti haqida yozish” degan ma’noni anglatadi. O‘zbekistonda etnografik tadqiqotlar ko‘plab milliy o‘rganishlarda muhim ahamiyatga ega. Topografiya – yunoncha *“topos”* (joy) va *“grapho”* (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, bu termin ma’lum bir joyning xususiyatlarini, undagi tabiiy va inson faoliyati bilan bog‘liq obyektlarni tasvirlashni anglatadi. Masalan, biror hududning o‘rganilishi, undagi tabiiy va madaniy obyektlarning joylashuvi bo‘yicha ma’lumotlar.

Tarixiy: masalan, *“County-graflik”* asosan feodal davr va uning ma’muriy tizimi bilan bog‘liq, bu yerda hududiy birlikni boshqaruvchi *“graf” (count*) rol o‘ynagan.

Monarxiya va qirollik: masalan, *“Kingdom-qirollik”* ko‘proq markazlashgan, avtoritar boshqaruv shaklini ifodalaydi, unda davlat hokimiyati qirol yoki boshqa monarx tomonidan belgilanadi. Boshqaruvning zamonaviy shakllari: masalan, *“Province-provinsiya”* va *“state-shtat”* esa ko‘proq zamonaviy, huquqiy asosda tashkil etilgan va ko‘plab davlatlarda ma’muriy hududlar shaklida tan olingan birliklardir.

Integratsiya va farqlilik: masalan, federal tizimda *“state-shtat”*lar o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lsa, provinsiyalar ko‘pincha markaziy siyosiy qarorlar doirasida faoliyat yuritadi. O‘zbek tilida mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha rus yoki arab tilidan kirgan so‘zlardan iborat, ammo ba’zilarining etimologiyasi aniq o‘zbek tilidan kelib chiqqan. O‘zbek tilida mamlakatshunoslikka oid terminlar o‘rganishdagi asosiy manba sifatida ruscha terminlar ishlatilgan. Shu bilan birga, ko‘plab o‘zbek tilidagi so‘zlar turkiy til qavmiyati bilan bog‘liq.

O‘zbek tilidagi ba’zi mamlakatshunoslik terminlari: ***Valyuta* (chet el pul birligi)**; bir davlatning boshqa davlat bilan savdo va moliyaviy masalalarda ishlatiladigan pul birligi. Bu so‘zning etimologiyasi italyancha “valuta”, lotincha “valera” (“qiymatli bo‘lmoq” fe’lidan kelib chiqqan) mazkur so‘z rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan[6]. ***Kartografiya*** (cartography): bu termin rus tilidan kirib, yunoncha “kartos” (xarita) va “grapho” (yozish) so‘zlaridan kelib chiqqan.

Mamlakatshunoslik terminologiyasining etimologiyasida yunon va lotin tillarining kelib chiqishi tez-tez uchraydi. Bu terminlar o‘zbek va ingliz tillarida turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ayrim xususiyatlarga ega. Tilshunoslikni o‘rganishda mamlakatga xos frazemalar ulardan foydalanuvchi xalqning ijtimoiy, madaniy va geosiyosiy hayotini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir mamlakatshunoslikka oid termin o‘zining tarixiy va lingvistik ildizlariga ega bo‘lib, ular mamlakatshunoslikda davlat shakllanishi, ijtimoiy tuzilish va ma’muriy bo‘linmalarni izohlashda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Masalan, *Beklik* – turkiy madaniyatda muhim siyosiy unvon bo‘lib, hududiy boshqaruvning bir shakli; *Xonlik* – nomad va yarim nomad davlatlar boshqaruvida “xon” unvonidan kelib chiqqan; *Viloyat* – arab-fors madaniyati asosida shakllangan, hududiy-ma’muriy bo‘linishni ifodalovchi atama; *Tuman* – qadimgi harbiy tashkilotlardan boshlangan, hozirda esa ma’muriy-hududiy bo‘linma sifatida ishlatiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tabiiyki, o‘zbek tili strukturasida muhim o‘rin egallagan so‘zlarning barchasi ham bir xil kelib chiqish va manbalarga ega emas. Muammoning o‘rganilgan mamlakatshunoslik terminologiyasi soha adabiyotlarida e’lon qilingan ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, o‘zbek tilidagi boshqa terminologik tizimlar birliklari va umumiy til leksikasidan keyin rivojlangan qatlamdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Меркулова А. О некоторых принципах этимоло-гии названий растений. Этимология. 1964. – М., 1965. – 259 с.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.:Наука, 1965. – С.164.
3. Falsafa tarixi (Sharq falsafasi). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Jahon print, 2013. – B. 34.
4. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma.– T: Yoshlar nashriyot uyi,2019.–16 b.
5. Ismoilov I., Meliyev K. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot (Mevali daraxt, poliz ekinlari nomlari va uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi materiallari asosida). – Toshkent: Fan, 1990. – B.3.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jid 2020. – 608 b.